



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



***Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-mart***

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi
Тел. 71-202-80-44 (45)***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 92 581 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 289 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 92 292 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ol ibborayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-mart oyida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 72 528,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 109,3 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 12 102,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 60 426,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 7 800,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 116,1 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-mart oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	72 528,2	109,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 388,5	106,5
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	5 009,7	109,7
Buxoro	4 067,7	109,3
Jizzax	2 209,6	106,6
Qashqadaryo	5 002,9	108,4
Navoiy	2 563,2	107,0
Namangan	4 256,2	109,9
Samarqand	6 577,5	108,0
Surxondaryo	4 832,3	110,2
Sirdaryo	1 156,6	105,1
Toshkent	6 705,6	110,1
Farg'ona	5 838,3	107,7
Xorazm	2 939,7	108,0
Toshkent sh.	18 980,4	110,6


2024- yilning yanvar-mart oyida 2023- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan respublikaning Toshkent shahri (110,6 %), Surxondaryo (110,2 %) va Toshkent (110,1 %) viloyatlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-mart)




So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 110,2 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023- yil, 2024- yil yanvar-mart oyi)



2024- yilning yanvar-mart oyida o'sish sur'ati **109,3** % ni tashkil qildi.




Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 26,2 % bilan 18 980,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Sirdaryo viloyati 1,6 % bilan 1 156,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-mart oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 60 426,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023 - yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 9,3 % ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 83,8 % ni tashkil etdi.


109,8**Namangan****110,1****Xorazm****110,1****Surxondaro****110,3****Samarqand****110,4****Andijon****111,9****Toshkent**

Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 10,0 % ga o'sdi va 12 102,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 16,7 % ulushiga to'g'ri keldi.

104,3**Navoiy****109,4****Qashqadaryo****111,1****Andijon****111,8****Surxondaryo****114,0****Toshkent sh.****115,7****Namangan****137,3****Buxoro**

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi (96,8 %), Surxondaryo (96,9 %) va Jizzax (95,7 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 16,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahri (40,3 %), Samarqand (15,8 %), Toshkent (13,5 %) va Buxoro (10,4 %) viloyatlarida kuzatildi.

16,7 %



83,3 %


 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik


Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda

Qoraqalpog'iston
Respublikasi

1 190,8

Farg'ona

1 434,3

Andijon

1 472,7

Xorazm

1 470,5

Buxoro

1 986,8

Toshkent sh.

6 223,9

Jizzax

1 462,4

Qashqadaryo

1 401,8

Navoiy

2 378,6

Namangan

1 385,0

Samarqand

1 559,4

Surxondaryo

1 675,3

Sirdaryo


1 262,7

Toshkent

2 192,2

2024- yilning yanvar-mart oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 966,5 ming so'm (2023- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 107,0 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (6 223,9 ming so'm), Navoiy (2 378,6 ming so'm) va Toshkent (2 192,2 ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-mart), foizda



Dehqon bozorlari




Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o‘rinlari, turg‘un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


	Jami, mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda
O‘zbekiston Respublikasi	7 800,0	116,1
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	330,3	119,9
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	774,7	118,2
Buxoro	495,4	119,7
Jizzax	564,9	113,8
Qashqadaryo	669,1	110,3
Navoiy	167,6	116,9
Namangan	633,3	116,1
Samarqand	733,4	113,9
Surxondaryo	1 043,9	118,4
Sirdaryo	126,9	114,3
Toshkent	646,7	116,6
Farg‘ona	523,8	120,2
Xorazm	525,5	113,1
Toshkent sh.	564,5	115,2

* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda;
 – jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-mart)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-mart)



Respublika bo'yicha 2024- yilning yanvar-mart oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 7 800,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 116,1 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 3 724,8 mlrd. so'mni (118,5 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 4 075,3 mlrd so'mni tashkil etdi (113,9 %).

2024-yilning yanvar-mart oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 3 724,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (1 683,0 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 1 683,0 mlrd. so'm  45,2 %	Non va non mahsulotlari 456,6 mlrd. so'm  12,3 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 380,0 mlrd. so'm  10,2 %
Tovuq go'shti 188,2 mlrd. so'm  5,1 %	Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 185,9 mlrd. so'm  5,0 %	Tuxum 138,0 mlrd. so'm  3,7 %
Ziravorlar 136,3 mlrd. so'm  3,7 %	Sut va sut mahsulotlari 143,6 mlrd. so'm  3,9 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 99,0 mlrd. so'm  2,7 %
Tuzlamalar 112,3 mlrd. so'm  3,0 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 53,4 mlrd. so'm  1,4 %	Nooziq-ovqat tovarlar 148,4 mlrd. so'm  4,0 %

2024- yilning yanvar-mart oyida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 4 075,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 3 266,8 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 680,3 mlrd. so'mni, otlar – 112,9 mlrd. so'mni, parrandalar – 15,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 1 914,9 mlrd. so'm  47,0 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 789,4 mlrd. so'm  19,4 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 562,4 mlrd. so'm  13,8 %
Qo'ylar 586,7 mlrd. so'm  14,4 %	Otlar 112,9 mlrd. so'm  2,8 %	Echkilar 93,7 mlrd. so'm  2,3 %
Kurka, o'rdak, g'oz 8,5 mlrd. so'm  0,2 %	Tovuqlar 5,7 mlrd. so'm  0,1 %	Quyionlar 0,7 mlrd. so'm  0,02 %
Qushlar 0,3 mlrd. so'm  0,01 %		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 24 889 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 72 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 24 817 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	3 649,2	109,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	72,4	106,8
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	96,5	107,7
Buxoro	161,8	104,4
Jizzax	78,5	107,3
Qashqadaryo	143,3	108,3
Navoiy	104,6	101,6
Namangan	101,0	104,3
Samarqand	249,7	103,5
Surxondaryo	119,4	108,7
Sirdaryo	35,1	105,7
Toshkent	323,2	107,2
Farg'ona	149,6	105,8
Xorazm	87,9	108,4
Toshkent sh.	1 926,1	114,1

2024- yilning yanvar-mart oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 3 649,2 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 74,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
O'zbekiston Respublikasi	17 151,5	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	443,0	2,6
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	898,1	5,2
Buxoro	960,5	5,6
Jizzax	1 370,8	8,0
Qashqadaryo	772,6	4,5
Navoiy	868,7	5,1
Namangan	694,0	4,0
Samarqand	626,3	3,7
Surxondaryo	254,6	1,5
Sirdaryo	125,8	0,7
Toshkent	1 326,4	7,7
Farg'ona	1 006,9	5,9
Xorazm	911,4	5,3
Toshkent sh.	6 892,4	40,2


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (6 892,4 mlrd. so'm), Jizzax (1 370,8 mlrd. so'm) va Toshkent (1 326,4 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-mart oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 17 151,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,6 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 6 991,4 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 114,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 10 160,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 125,5 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Respublika bo'yicha 2024- yilning yanvar-mart oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 61 925,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 12,8 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

28,9 %

17 881,8 mlrd. so'm

Yirik korxonalar

71,1 %

44 043,8 mlrd. so'm

**Mikrofirma va kichik
korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 44 043,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,9 % ga to'g'ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 71,1 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024-yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 48 804 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 309 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 48 495 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Farg'ona (3,7 m.), Samarqand (1,5 m.) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (2,3 m.) kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	61 925,6	112,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	873,6	118,4
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	1 441,7	112,6
Buxoro	3 240,7	116,3
Jizzax	1 019,7	103,0
Qashqadaryo	1 364,7	108,7
Navoiy	676,6	108,4
Namangan	2 327,6	109,3
Samarqand	3 684,8	122,2
Surxondaryo	1 213,8	106,4
Sirdaryo	744,1	107,4
Toshkent	6 013,4	107,7
Farg'ona	3 776,6	118,4
Xorazm	1 322,8	108,5
Toshkent sh.	34 225,6	112,3